



UDK:820(73)-93+894.375.09-93.09

Salima BABAEVA,

National University of Uzbekistan Associate professor, PhD of Translation theory and Comparative linguistics

E-mail: salimahon71@gmail.com

Reviewer: N. Sadullaeva Associate professor, DSc of NUUZ

G'ARB BOLALAR ADABIYOTINING SHARQ ADABIYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada G'arb bolalar adabiyotining janr va mavzulari, tarjima va adaptatsiya jarayonlari hamda madaniy almashinuv orqali Sharq bolalar adabiyotiga qanday o'zgarishlar olib kelgani o'rganiladi. Shuningdek, Sharq yozuvchilarining G'arb bolalar adabiyotidan o'rgangan jihatlari va yangi tendensiyalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Janr, G'arb, Sharq, ta'sir, bolalik, ertak-qissa, badiiy uslub, tasvir, go'ya, sarguzasht, mavzu, syujet, qahramon, obraz, adabiyot.

THE INFLUENCE OF WESTERN CHILDREN'S LITERATURE ON EASTERN LITERATURE

Annotation

This article examines the genres and themes of Western children's literature, the processes of translation and adaptation, and the changes they have brought to Eastern children's literature through cultural exchange. Additionally, it explores the aspects that Eastern writers have adopted from Western children's literature and discusses new trends in this field.

Key words: Genre, East, West, influence, childhood, fairy tale, artistic style, description, idea, adventure, theme, plot, hero, image, literature.

ВЛИЯНИЕ ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НА ВОСТОЧНУЮ ЛИТЕРАТУРУ

Аннотация

В данной статье изучаются жанры и темы западной детской литературы, процессы перевода и адаптации, а также изменения, которые они внесли в восточную детскую литературу через культурный обмен. Кроме того, рассматриваются аспекты, которые восточные писатели переняли из западной детской литературы, а также новые тенденции в этой области.

Ключевые слова: Жанр, Запад, Восток, влияние, детство, сказка, художественный особенност, описание, идея, приключение, тема, сюжет, герой, образ, литература.

Kirish. G'arb bolalar adabiyotining Sharq adabiyotiga ta'siri ko'p jihatdan madaniy almashinuv, tarjima faoliyati va globallashuv jarayonlari orqali amalga oshgan. Turli madaniyatlar adabiyotlarining o'zaro bog'liqligi milliy adabiyotni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. G'arb adabiyotining Sharq adabiyotiga ta'siri tarix davomida ikki sivilizatsiya o'rtasidagi madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarning kuchayishi bilan bog'liq. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu ta'sir yanada kuchayib, Sharq adabiyotida yangi janrlar, uslublar va mavzular paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Tarixiy asoslar adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. G'arb va Sharq adabiyotlari o'rtasidagi ta'sir asosan mustamlakachilik va savdo aloqalari, ilmiy va madaniy muloqotlar, tarjimalar orqali adabiy asarlarning tarqalishi, ta'lim tizimi orqali G'arb adabiyotining o'rganilishiga olib keldi.

O'zbek bolalar adabiyoti xalq og'zaki ijodidan boshlab bugungi kungacha rivojlanib kelgan. Uning shakllanishi va taraqqiyotida turli adabiy oqimlar, milliy va jahon adabiyoti namunalari muhim rol o'ynagan. Xususan, G'arb bolalar adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri, ayniqsa, XX asr davrida, globallashuv va madaniy almashinuv jarayonlari kuchaygan davrda sezilarli bo'lgan. Ushbu maqola G'arb bolalar adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'sirini, bolalar uchun asarlardagi syujetlar, obrazlar va qadriyatlarini moslashtirish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

G'arb bolalar adabiyotidagi ertak, sarguzasht, fantastika va detektiv janrlari Sharq adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatgan. Masalan, G'arb adabiyotida keng tarqalgan fantastik elementlar ("Alisa mo'jizalar mamlakatida", "Sehrgar Oz yurti") yoki detektiv hikoyalar (Sherlok Xolms) Sharq bolalar adabiyotida ham o'z aksini topa boshlagan.

Ko'plab G'arb bolalar asarlari Sharq tillariga tarjima qilinib, mahalliy madaniyatga moslashtirilgan. Masalan, Mark Tven, Daniel Defoning asarlari arab, fors, turk va o'zbek tillariga

tarjima qilingan. Ba'zan asarlar Sharq madaniyatiga yaqinlashtirilgan holda talqin etilgan.

G'arb bolalar adabiyotida individualizm, mustaqillik va sarguzashtga moyillik targ'ib etilsa, Sharq adabiyotida oila, jamoaviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya ustuvor bo'lgan. G'arb adabiyotining ta'siri bilan Sharq adabiyotida ham bolalar obrazlari yanada mustaqil, faol va tadbirkor sifatida tasvirlana boshlagan.

Sharq bolalar adabiyotida psixologizm, realizm va yumor jihatidan G'arb adabiyoti ta'siri sezilarli bo'lgan. Masalan, Ostrovskining "Bolalik", Exo L. Frank Baum, Astrid Lindgren asarlarining ta'siri bilan Sharq adabiyotida ham bolalar uchun sodda, ammo ta'sirli til va uslub paydo bo'ldi.

G'arb bolalar adabiyoti Sharq bolalar kitoblarning bezaklari, suratlar va dizayniga ham ta'sir ko'rsatgan. G'arb uslubidagi yorqin ranglar, jonli tasvirlar va vizual estetika Sharq bolalar kitoblari ham qo'llanila boshlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asr boshida o'zbek adabiyoti tarjimalar va madaniy almashinuvlar tufayli G'arb adabiyoti bilan faol hamkorlik qila boshladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus tili orqali A.S. Pushkin, L.N. Tolstoy, G'arb mualliflarining Daniel Defo, Jules Vern, Charl Perro, Hans Kristian Andersen va boshqa adiblarning asarlarining birinchi tarjimalari paydo bo'ldi. Ushbu asarlarning tarjimalari o'quvchilar orasida talabga ega bo'lib, yangi janrlar, adabiy an'analarning tarqalishiga, yangi mavzular va syujetlarni kiritishga yordam berdi. O'zbek adabiyotidagi tarjima an'analari milliy bolalar adabiyoti shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dastlabki tarjimalardan biri mahalliy madaniyatga moslashgan Andersen ertaklari va Lafonten ertaklari edi. Ushbu asarlar nafaqat o'zbek bolalarini yangi mavzular bilan tanishtirdi, balki adabiyotga insonparvarlik, axloqiy qadriyatlar va fantastika elementlarini ham olib keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida G'arb adabiyotining ta'siri katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham G'arb bolalar adabiyotining ilg'or

namunalari o'zbek adabiyotida yangi yo'nalishlarni rivojlantirishda davom etmoqda. Shu tariqa, bolalar adabiyoti yosh avlodni tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu ta'sir asosan mavzu, janr va uslubiy jihatlardan namoyon bo'lgan. G'arb adabiyoti Sharq adabiyotiga nafaqat janr va uslublar, balki yangi g'oyalar va dunyoqarashlarni ham olib kirgan. Bu ta'sir ikki madaniyat o'rtasidagi doimiy muloqot va taraqqiyotning natijasi sifatida yuzaga chiqqan bo'lib, zamonaviy adabiyot rivojiga katta hissa qo'shdi.

G'arb adabiyoti Sharq adabiyotiga quyidagi janr va uslublarni olib kirdi. Hayotni haqqoniy tasvirlash uslubi G'arb adabiyotidan olingan bo'lib, u rus adabiyoti orqali Sharq adabiyotiga kirib keldi. XX asrda Sharq adabiyotida yangi badiiy uslublar paydo bo'lishida G'arb simvolistlari va modernistlarining ta'siri sezildi. Inson huquqlari va erkinlik mavzulari G'arb adabiyotidagi demokratik g'oyalar Sharq adabiyotida ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim o'rin tutdi.

G'arb adabiyotidagi zamonaviylik, texnologiya va urbanizatsiya mavzulari Sharq adabiyotida ham aks eta boshladi.

Andersen ertaklaridagi tabiat tasvirlari va uni inson hayoti bilan bog'lash o'zbek yozuvchilari asarlarida ham o'z aksini topdi (G'. G'ulomning "Shum bola" qissasi).

G'arb adabiyotidagi insonparvarlik g'oyalari Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va G'ofur G'ulom kabi yozuvchilarning asarlarida, Tolstoy va Gorkiy asarlaridagi ilm-ma'rifat g'oyalari o'zbek bolalar adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi (Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari).

G'arb bolalar adabiyoti bolalar uchun o'zbek asarlari mavzusiga xilma-xillik kiritdi. Ertak syujetlari, sarguzasht hikoyalari va hayvonlar haqidagi hikoyalar alohida o'rin tutgan. Masalan, o'zbek asarlarida ilgari milliy an'anaga xos bo'lmagan yaxshi sehrarlar, jasur qahramonlar va hayoliy mavjudotlarning tasvirlari paydo bo'la boshladi. G'arb adabiyoti ham o'zbek adabiyotida yangi janrlarning rivojlanishiga ko'maklashdi. Agar ilgari xalq ertaklari va ibratli hikoyalar ustunlik qilgan bo'lsa, G'arb asarlari kirib kelishi bilan sarguzasht va ilmiy-fantastik janrlarning rivojlanishi kuchaydi. Bu Hamid G'ulom, G'afur G'ulom va boshqa o'zbek mualliflari asarlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

G'arb mavzularining o'zbek haqiqatiga moslashishi milliy o'ziga xoslikni saqlashda muhim rol o'ynadi. Ko'plab asarlar mahalliy an'analarni hisobga olgan holda tarjima qilingan, bu ularni o'zbek bolalariga yaqinroq va tushunarli qilgan. Masalan, Evropa ertaklarining ba'zi tarjimalarida qahramonlarning ismlari va tabiat tavsiflari o'zbek haqiqatiga mos ravishda almashtirildi.

G'arb bolalar adabiyoti nafaqat ko'ngil ochish, balki o'zbek bolalarini tarbiyalashga ham hissa qo'shdi. Andersen, Defo, Dikens va Mark Tvenning asarlari bolalarga mehribonlik, adolat va mehnatsevarlikni o'rgatdi. Ushbu qadriyatlarining ta'siri o'zbek yozuvchilarning asarlarida aks etgan bo'lib, ular o'z asarlarida axloqiy jihatlarga ko'proq e'tibor berishni boshladilar.

Shunday qilib, G'arb bolalar adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri muhim va ko'p qirrali. Bu asarlarning mavzusi, janr xilma-xilligi, obrazlari va uslubida aks etgan. Mavzular va obrazlarni o'zlashtirganiga qaramay, o'zbek adabiyoti G'arb asarlarini mahalliy madaniyat va urf-odatlariga moslashtirish orqali o'zining milliy o'ziga xosligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu o'zaro ta'sirni yanada o'rganish madaniy almashinuv va milliy adabiyotni shakllantirish jarayonlarini chuqur tushinishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar. G'arb adabiyoti o'zbek bolalar adabiyotini adabiy ertak va hikoya kabi yangi janrlar bilan boyitdi. Bu yanada murakkab mavzular va chuqur xarakterga ega bo'lgan asarlarning paydo bo'lishiga yordam berdi, bu esa yosh o'quvchilarning adabiy dunyoqarashini kengaytirdi. G'arb asarlari o'zbek adabiyotiga ilgari unchalik keng tarqalmagan mavzular va motivlarni kiritdi. Masalan, sarguzasht syujetlari va fantastik elementlar yanada ommalashdi, bu bolalarning e'tiborini tortdi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi.

G'arb adabiyoti o'zbek mualliflarining ekspressiv vositalarini boyitgan yangi badiiy texnika va uslubiy

xususiyatlarni olib keldi. Bu asarlarning badiiy darajasini va ularning estetik qiymatini oshirishga yordam berdi.

G'arb bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga faol tarjima qilish yosh kitobxonlarning adabiy tajribasini boyitadi va mahalliy mualliflarni sifatli asarlar yaratishga undaydi.

Yosh yozuvchilar uchun dasturlar va grantlar yaratish bolalar adabiyotiga yangi iste'dodlarni jalb qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Bolalar adabiyotini tarqatish va targ'ib qilishda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi auditoriyani kengaytiradi va o'qishni bolalar uchun yanada qulayroq va jozibali qiladi.

Ushbu tavsiyalarga amal qilib, o'zbek bolalar adabiyoti G'arb ta'sirining ijobiy tomonlarini samarali integratsiya qila oladi, shu bilan birga o'ziga xosligi va madaniy merosini saqlab qoladi.

G'arb bolalar adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, turli jihatlarida namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda o'zbek bolalar adabiyotining faol rivojlanishi kuzatilmog'da, bu jahon adabiy jarayonlariga integratsiyalashish istagini aks ettiradi.

G'arb bolalar adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri janrlar, mavzular va badiiy texnikalarni moslashtirish orqali namoyon bo'ladi. Zamonaviy o'zbek mualliflari milliy an'analarga tayanib, jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zlashtirib, o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish va boyitishga xizmat qiluvchi noyob asarlar yaratmoqdalar.

Xulosa va takliflar. O'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida G'arb adabiyotining ta'siri katta ahamiyatga ega. Bu ta'sir asosan mavzu, janr va uslubiy jihatlardan namoyon bo'lgan. Bugungi kunda ham G'arb bolalar adabiyotining ilg'or namunalari o'zbek adabiyotida yangi yo'nalishlarni rivojlantirishda davom etmoqda. Shu tariqa, bolalar adabiyoti yosh avlodni tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

G'arb bolalar adabiyotining Sharq bolalar adabiyotiga ta'siri uzoq tarixiy jarayon bo'lib, tarjima, moslashtirish va madaniy almashinuv orqali amalga oshgan.

G'arb bolalar adabiyoti janr va mavzular xilma-xilligini ta'minladi. Sharq bolalar adabiyotida asosan milliy qadriyatlar va didaktik yondashuv ustun bo'lsa, G'arb asarlari bolalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy rivojlanishini rag'batlantiruvchi mavzularni olib keldi. Fantastika, detektiv, sarguzasht kabi janrlar G'arb adabiyotidan olingan bo'lsa-da, ularning milliy versiyalari shakllandi.

Tarjima va adaptatsiya jarayonlari orqali Sharq adabiyoti G'arb madaniy ta'sirini qabul qildi. Ba'zi G'arb asarlari to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, boshqalari mahalliy qadriyatlarga moslashtirilgan. Masalan, G'arb qahramonlari ba'zan milliy sharoitga mos tarzda qayta talqin qilingan. Sharq bolalar adabiyoti o'z an'anaviy didaktik xususiyatlarini saqlab qolgan holda G'arb motivlaridan foydalangan. Ertak va hikoyalarda axloqiy o'git berish davom etgan, lekin G'arb uslubidagi sarguzasht va individualizm unsurlari ham qo'shilgan. XXI asrda G'arb va Sharq bolalar adabiyoti yanada yaqinlashgan, tarjima va nashr etish hajmi oshgan. Biroq, ba'zi hollarda tarjima jarayonida asarlarning asl mazmuni yo'qolib ketishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi kuzatilgan.

Sharq yozuvchilari G'arb bolalar adabiyotining kreativ yondashuvlaridan o'rganib, milliy adabiyotni zamonaviy uslubda rivojlantirishi lozim. Innovatsion janrlar (fantastika, ilmiy-fantastika, sarguzasht hikoyalari) kengroq targ'ib qilinishi kerak. G'arb bolalar adabiyotini tarjima qilishda mahalliy madaniyat va urf-odatlarini hisobga olgan holda muvozanat saqlanishi kerak. Tarjima qilinayotgan asarlar pedagog va psixologlar tomonidan ko'rib chiqilishi lozim. G'arb ta'siriga qaramasdan, milliy an'analari va qadriyatlarni aks ettiruvchi bolalar adabiyoti rivojlantirilishi lozim. Yosh ijodkorlar uchun bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan tanlov va mukofotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Bolalar uchun mo'ljallangan milliy va xalqaro adabiy asarlar ommaviy axborot vositalari (multifilmlar, radioeshittirishlar, elektron kitoblari) orqali ommalashtirilishi zarur.

G'arb bolalar adabiyotining Sharq adabiyotiga ta'siri ijobiy va salbiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu ta'sir adabiy o'zaro boyish jarayoni sifatida qaralishi kerak. Muhimi, Sharq bolalar adabiyoti o'z an'anaviy mazmunini saqlab qolgan holda

zamonaviy tendensiyalarga moslasha olishi lozim. Shuningdek, tarjima va mahalliyashtirish jarayonlarida sifatga alohida e'tibor qaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Akmalov, I. Sharq bolalar adabiyoti va zamonaviy tendensiyalar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.–180 b.
2. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2018.–90–115 p.
3. Creswell, John W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE Publications, 2017. –30–55 p.
4. Fairclough, Norman. Discourse and Social Change. Polity Press, 1992. –60 p.
5. Farid, S. Persian Children's Literature and Western Influence. Tehran University Press, 2015.–90–120 p.
6. Hunt, Peter. Children's Literature: An Illustrated History. Oxford University Press, 1995. –45–67,120–135 p.
7. Latif, S. Cultural Adaptation in Translated Children's Literature. Cambridge Scholars Publishing, 2018.– 60–85 p.
8. Mahmudov, N. O'zbek bolalar adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan, 2003. –25–50 b.
9. Nikolajeva, Maria. Children's Literature Comes of Age: Toward a New Aesthetic. Routledge, 1996.
10. Stephens, John. Language and Ideology in Children's Fiction. Longman, 1992. –55–80 p.
11. Venuti, Lawrence. The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge, 1995.–45–70 p.
12. Zipes, Jack. Fairy Tales and the Art of Subversion. Routledge, 2006.– 89–112 p.
13. Shavit, Zohar. Poetics of Children's Literature. University of Georgia Press, 1986. –77–102 p.